

IQTISODIYOT YO‘NALISHI METODIKASI VA TA’LIM TEXNOLOGIYALARI

Normuminov Salohiddin Sohibjonovich

Alfraganus University Iqtisodiyot fakulteti

Iqtisodiyot (sohalari va tarmoqlari) yo‘nalishi talabasi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada yangilanayotgan O‘zbekistonda umumiy o‘rta ta’lim mакtablarida iqtisodiy fanlarni o‘qitish yangi bosqichga ko‘tarish, sifatli ta’lim berish imkoniyatlarini oshirish, maktab o‘quvchilarida iqtisodiy va tadbirkorlikka oid bilim ko‘nikmalarini rivojlantirish, dars mashg‘uloti davomida foydalaniladigan ta’lim metodlari, ta’lim sifatini oshirish yo‘lidagi fikr- mulohazalar bildirilgan hamda tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim tizimi, innovatsion yondoshuv, sifatli ta’lim, innavatsion ta’lim metodlari, ta’lim texnologiyalari, ta’lim sifatini ta’minalash.

Respublikamiz iqtisodiyoti yangicha munosabatlarga o‘tish bosqichida turgan sharoitda bu masala juda ahamiyatlidir. Holbuki, bu masalalarni hal etish, eng avvalo, yoshlarda iqtisodiy savodxonlikni, tamomila yangicha iqtisodiy fikrlashni rivojlantirishning g‘oyat dolzarb vazifa ekanini ko‘rsatadi. Chunki bozor iqtisodiyoti davrida iqtisodiy savodxonlik nafaqat olimlar, balki barcha soha mutaxassislari uchun zarur bo‘lgan xususiyatdir. Shunday ekan, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimida «Iqtisodiyy bilim asoslari» fanini o‘rganish alohida ahamiyat kasb etadi. Albatta, bu fan o‘quvchilarning zamonaviy iqtisodiy tafakkurining shakllanishiga xizmat qiladi. Biroq hozirgi zamon iqtisodiy bilimlar zaminida tarixiy-iqtisodiy g‘oyalar, zamonaviy qarashlar, ta’limotlar, eng muhim iqtisodiy faoliyatning amaliy jihatlari katta o‘rin tutadi.

Iqtisodiyot nazariyasi — insonlarning cheksiz ehtiyojlarini qondirish uchun cheklangan resurslardan samarali foydalanishni va xo‘jalik yuritish jarayonida turli tomonlar orasida yuzaga keluvchi munosabatlarni o‘rganuvchi fan.

Iqtisodiyotning qonun-qoidalari, tushunchalari va rivojlanish tamoyillarini o‘rganuvchi umumiqtisodiy va nazariy fan. Iqtisodiyot nazariyasi xorij mamlakatlarida „Ekonomiks“, „Ekonomika“ va „Siyosiy iqtisod“ nomlari bilan, MDH mamlakatlarida „Iqtisodiyot nazariyasi“ nomi bilan yuritiladi. Iqtisodiyot nazariyasi iqtisodiyotni umumiy jihatidan va har bir iqtisodiy tizimga tadbigan o‘rganadi, iqtisodiy hodisalarini mikro va makro hamda jahon iqtisodiyoti darajasida tahlil etadi. Bu fan O‘zbekistonda „Iqtisodiy bilim asoslari“ sifatida maktablarda, „Iqtisodiyot asoslari“ sifatida kollej va akademik litseylarda va „Iqtisodiyot nazariyasi“ sifatida oliy o‘quv yurtlarida

o‘rganiladi. Iqtisodiyot nazariyasi ijtimoiy fan bo‘lib, tovar va xizmatlarning ishlab chiqarilishi, taqsimlanishi va iste’mol qilinishi jarayonlarini o‘rganadi.

Iqtisodiyot nazariyasining predmeti kishilarning cheklangan iqtisodiy resurslar sharoitida muqobil xo‘jalik yuritish asosida o‘z ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan xattiharakatlari, ularni belgilovchi iqtisodiy shartsharoitlar hisoblanadi. Bu fan xo‘jalik yurituvchi sub’yeklarning (firmalar, xonodon, ayrim individ va davlat) iqtisodiy xattiharakatlarini yaxlitlikda o‘rganadi. Uning tadqiqot ob’yekti iqtisodiy hodisalar bo‘lib, ular ishlab chiqarish, ayirboshlash, taqsimot va iste’mol sohasida yuz beradi. Tabiiy sharoit — bu iqlim, tuproqning tuzilishi, yer osti boyliklarining mik, dori, o‘simplik va hayvonot dunyosidan, odamlarning ish qobiliyatidan iboratki, bu omillar iqtisodiy faoliyatga ta’sir etmay qolmaydi.

O‘quvchilarning iqtisodiy munosabatlarga kirishish ko‘nikmalarini rivojlantirishda integratsiya, mehnat munosabati bilan bog‘liqlik, tarbiyaviy omillar birligi, jamiyatning ijtimoiy- iqtisodiy ehtiyojiga moslik, shaxsning ehtiyoj va imkoniyatlari birligi individual xususiyatlarini inobatga olish, tabaqaviy yondashish, jamoa imkoniyatining ustuvorligi, o‘yin xarakteriga egalik kabi tamoyillar alohida o‘rin tutadi. Mazkur tamoyillarni amalga oshirishda o‘quvchilarning iqtisodiy ta’lim qadriyatlariga asoslanadi va ajralmas pedagogik jarayonlarida aks etadi. Ta’limga innovatsion yondashuv sharoitida iqtisodiy fanlarni o‘qitishda umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarining iqtisodiy bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishda o‘yin texnologiyalaridan foydalanish mazkur fanlarning o‘qitilish sifatini oshiradi.

Rolli o‘yin metodining asosiy afzalliklarini qisqacha quyidagicha ifodalash mumkin:

- amaliy o‘qitish sharoiti bo‘lajak kichik mutaxassislar kasbi bo‘yicha kelgusida ishlaydigan shart-sharoitga maksimal darajada yaqinlashtiriladi;
- talabalarda kompleks tarzda kasbiy bilimlar, ko‘nikma va malakalar shakllanishini ta’minlaydi;
- kasbiy-amaliy faoliyat modeli yaratiladi;
- talabalar o‘yin jarayonida tajriba orttiradi, yo‘l qo‘ygan xatolarini o‘zlari to‘g‘rilaydi va bunda hech qanday ma’naviy zarar ko‘rmaydi.

Xorijiy davlatlarning shaxsning iqtisodiy bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishda o‘yin texnologiyalaridan foydalanishga oid tajribasi, xususan, "Monopoliya", Pul oqimi" hamda "Iqtisodiy o‘n ikkilik" o‘yin tajribalarini qo‘llanishi maqsadga muvofiqdir. Dars mashg‘ulotlarida "Muammoli o‘qitish", "Guruhiy qidiruv" va "Modulli ta’lim" kabi metodlarga asoslangan imitatcion xarakterdagи pedagogik ("Ishbilarmon", "Ishchanlik", "Krassvord", "Onagramma", "Rebus") o‘yinlar tashkil etilishi o‘quvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda iqtisodiy muammolarni rolli o‘yinlar asosida mustaqil hal qila olish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

O‘yin jarayonida hal etiladigan vazifalar:

- 1) Iqtisodiy xarakterdagi topshiriqlar yordamida o‘quvchilarning iqtisodiy bilimlarini umumlashtirish va tizimlashtirishga o‘rgatish;
- 2) O‘quvchilarda muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish (yechimni topish) malakalarini rivojlantirish;
- 3) Amaliy topshiriqlar yordamida o‘quvchilarda iqtisodiy bilim, ko‘nikma va malakalarini musaqil baholash qobiliyatini shakllantirish.

Xulosa qilib aytganda, pedagogik tajribalar natijasi ko‘rsatadiki, iqtisodiy ta’lim berishda o‘qitishning zamonaviy usullaridan foydanlanish, rolli o‘yinlar ta’lim oluvchilarning bilish faoliyatini ancha faollashtiradi. Ta’lim-tarbiya jarayonida rolli o‘yinlardan foydalanan o‘quvchilarning tanlagan kasbiy yo‘nalish bo‘yicha olgan maxsus bilimlari va kasbiy qobiliyatini namoyon etishga imkon beradi. Agar bo‘lajak mutaxassis o‘zini muassasa rahbari, iqtisodchi-tadbirkor yoki firma rahbari sifatida tasavvur etib faoliyat ko‘rsatsa o‘quv materiallarini juda yaxshi o‘zlashtiradi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Платонов К.К., Голубев Г. Г. Психология. Учебник для индустриально-педагогических техникумов. -М.: Высшая школа, 1983. –173б.
2. Ochilov M. Axloqiy tarbiya -Т.: O‘qituvchi, 1992. – 232 б.
3. Полат Е.С. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования. Учеб, пособие для студенческих и научно-исследовательских работников высшей школы. Квал. Педкадров.М.: Изд. центр “Академия”, 2000. -272 -б.
4. Педагогика. Большая современная энциклопедия. Минск ИООО «Современное слово», 2005, - 676-677 б.
5. Razzoqov A., Toshmatov Sh., O‘rmonov N., Iqtisodiy ta’limotlar tarixi. - Toshkent : Moliya, 2002 . 492 б.
6. Razzoqov A. To‘raxonova H. Beruniyning iqtisodiy g‘oyalari. «Hamkor» 2001 yil, iyul soni.